

Theoretical Foundations Of Syntactic Analysis

Turayev Jasurbek Qakhorovich

Researcher, Uzbek State University of World Languages

Jasurturaev88@gmail.com

Abstract

This article covers the theoretical and methodological foundations of the concept of syntactic analysis. The role of syntax in linguistics, the analysis of sentences and phrases, as well as the specific aspects of traditional and modern approaches are analyzed. Today, the practical importance of syntactic analysis is clearly manifested in the educational process in the linguistics of translated texts or computer linguistics.

Keywords: syntax, syntactic analysis, sentence, phrase, transformational method, structural-semantic method, computer linguistics.

Annotatsiya

Ushbu maqolada sintaktik analiz tushunchasining nazariy metodologik asoslari yoritilgan. Sintaksisning tilshunoslikdagi o'rni, gap va so'z birikmasining tahlili, shuningdek, an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Bugungi kunda sintaktik analizning amaliy ahamiyati ta'lim jarayonida tarjima matnlari lingvistikasi yoki kompyuter lingvistikasida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: sintaksis, sintaktik analiz, gap, so'z birikmasi, transformatsion metod, struktur-semantik metod, kompyuter lingvistikasi.

KIRISH / BBEAEHHE / ABSTRACT

Sintaktika tilshunoslik bo'limlaridan biri bo'lib, so'zlar va gaplardagi belgilarning birikish qoidalarini, ularning tuzilishini hamda ularning shakllanishi va o'zgarishini o'rganadi. Shuningdek, sintaktika gap va so'z birikmalarining tuzilishi hamda ularning o'zaro bog'lanish qonuniyatlarini o'rgansa sintaktik analiz (tahlil) esa mazkur birliklarning Shakl va mazmunini tahlil qilish jarayonini o'zida ifodalaydi. Bugungi kunda sintaktik tahlil nafaqat nazariy tilshunoslikda, balki o'quv jarayonida, matn lingvistikasi, tarjima nazariyasi va kompyuter lingvistikasida ham muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shu boisdan, sintaktik analizning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish zamonaviy tilshunoslikda dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Sintaktik analizning nazariy hamda metodologik asoslarini har tomonlama yoritish, uning tilshunoslikdagi O'rni va ahamiyatini aniqlash, shuningdek, mazkur tahlil turining amaliy qo'llanilish doiralarini

tahlil qilish ushbu tadqiqot ishining asosiy vazifalaridan biridir. Sintaktik birliklarning tuzilishi va ular o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga asoslangan metodlarni ko'rib chiqar ekanmiz, zamonaviy lingvistika yo'nalishlarda xususan, o'quv jarayoni, matn tahlili, tarjimashunoslik va kompyuter lingvistikasi kabi sohalarda sintaktik tahlilning qanday amaliy ahamiyatga ega ekanligiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Sintaktik tahlil sohasidagi nazariy yondashuvlar bilan amaliy metodlarning o'zaro bog'liqligini tadqiq qilish orqali sintaktik analizga oid tadqiqotlar uchun ilmiy metodologik asos yaratilishini ham e'tiborga olish lozim.

Sintaktik tahlil leksikologiyaning eng yuqori darajasini tashkil etadi va unda fonetika, leksika, morfologiya kabi til darujalari o'zaro uyg'unlashib, tilning yaxlit grammatik tizimini shakllantiradi. Shu sababli, sintaktik tahlil nafaqat grammatik shakllarni aniqlashga, balki nutqning mantiqiy, semantik va pragmatik jihatlarni ham yoritishga xizmat qiladi. Sintaktik analiz

tushunchasi tor ma'noda gap tuzilishini grammatik jihatdan tahlil qilish jarayoni sifatida izohlansa, keng ma'noda til birliklari o'rtasidagi sintaktik munosabatlarni nazariy va amaliy asosda o'rganishni nazarda tutadi. 11miy tadqiqotlar doirasida sintaktik tahlilning nazariy metodologik asoslarini o'rganish leksikologiyani yaxlit holda anglash, nutq faoliyatini ilmiy asosda izohlash va tilda namoyon bo'ladigan sintaktik hodisalarni chuqur tahlil qilishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (JIHTEPATYPA METOA / MATERIALS AND METHODS)

XX-asr tilshunosligida sintaktik tahlilga nisbatan yangicha nazariy yondashuvlar shakllanib bordi. Jumladan, strukturalizm yo'nalishi gap tuzilishini qatlamlarga ujratisht, til birliklarini formal modellar asosida tahlil qilish g'oyalari ilgari surildi. Ushbu yondashuvga ko'ra, gap strukturalizmi segmentlarga bo'linib, ularning o'zaro grammatik munosabatlari aniqlanadi va leksikologik tahlil bu yerda aniq strukturaga ega model sifatida o'rganiladi. Amerikalik tilshunos Noam Xomskiy tomonidan ishlab chiqilgan generativ grammatika nazariyasi sintaktik tahlilga o'ziga xos yangi bosqichni olib kirgan. Noam Xomskiy o'zining mashhur "Aspects of the Theory of Syntax" asarida tilni cheksiz gaplar yaratishga qodir qoida tizimi sifatida talqin qilib, bu yondashuv orqali sintaksisni dinamik, yaratuvchan va mantiqan asoslangan jarayon sifatida tahlil qilishga erishadi.

Mazkur tadqiqotdagi yondashuvlar sintaktik analizni zamonaviy ilmiy asoslarda takomillashtirishga xizmat qilib, til strukturalizmi va uning ishlash mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini yaratgan [1].

Sintaktik tahlil tilshunoslikda eng muhim va dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib, u gap va so'z birikmalari tuzilishini, ularning ichki va tashqi grammatik hamda semantik munosabatlarini o'rganishga qaratilgan. Sintaktik tahlilga oid nazariy qarashlar

rivovlanib borgan sari tilshunoslikda yangi paradigmalarning shakllanishiga, formal yondashuvlar negizida shakllangan strukturalizm va undan kelib chiqqan generativ grammatika nazariyalari sintaktik analizning chuqur nazariy-metodologik asoslarini yaratishga xizmat qilgan. Biroq sintaktik tizimning yaratuvchan tabiati va chuqur semantik qatlamlarini tushuntirish uchun yanada mukammal yondashuv zarur ediki, bunda generativ grammatika nazariyasining iste'molga kirib kelishiga zamin yaratildi

Sintaksis tahlilga oid tadqiqotlar tarixiy jihatdan ko'plab nazariy maktablar ta'sirida shakllangan desak xato bo'lmaydi. Jumladan, shvetsariyalik lingvist Ferdinand de Saussure tomonidan asos solingan, lingvistik tizimining ichki qonuniyatlarga ega bo'lgan Yevropa strukturalizmi, yoki amerikalik lingvist Leonard Bloomfield esa amerika strukturalizmini yanada empirik asosda shakllantirib, gap tuzilishini qat'iy grammatik mezonlar asosida tahlil qilish tarafdori bo'lganligi borasidagi tadqiqotlar shular jumlasidandir [2].

Zamonaviy taraqqiyotga erishilgan sari tilshunoslikda ham sintaktik tahlil bo'yicha ilmiy tadqiqotlar aynan generativ va funksional yondashuvlar asosida olib borilib bunda ayniqsa britaniyalik lingvist Andrew Radford kabi zamonaviy tilshunoslar Noam Xomskiyning nazariy asoslarini talabalarga tushunarli shaklda yoritib berishda muhim muhim tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan [3].

Sintaktik tahlil masalalari yuzasidan nafaqat jahon tilshunosligida, balki MDH davlatlarida ham keng ko'lamda tadqiqotlar olib borilgan. Sintaktik tahlilning nazariy va amaliy jihatlari o'zbek, rus, qirg'iz, tojik va boshqa tilshunoslar tomonidan chuqur o'rganilgan. O'zbek tilshunosligi olimlaridan A.Qodirov va Sh. Yo'ldoshev sintaktik strukturani o'rganish bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega bo'lib ushbu tadqiqotlarda o'zbek tilining

gap tuzilishi, gap bo'laklarining funksiyalari, murakkab gaplarning turlari va ularning bog'lanish qonuniyatlari tahlil qilingan [4]. Shuningdek rus tilshunos olimlaridan V. V. Vinogradov o'zining sintaktik birliklar va gap tarkibi bo'yicha izlanishlar, xususan gapning grammatik va stilistik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlari orqali sintaktik tahlil nazariyasiga katta hissa qo'shgan bo'lsa [51, zamonaviy o'zbek tilshunosligida

M.X.Haydarov va N. Tursunovlar sintaktik tahlilning nazariy va metodologik asoslarini lakomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar Olib borganlar. Ushbu tadqiqot o'zbek tilining zamonaviy sintaktik tizimini, gap tuzilishi va uning kommunikativ xususiyatlari ochib berishda muhim tadqiqot ishi bo'lib xizmat qilgan (Haydarov, 2005; Tursunov, 2010) [6]. Ushbu olimlarning ilmiy merosi sintaktik tahlilning kompleks yondashuvlarini shakllantirish va lakomillashtirishga yordam berib, til birliklarining grammatik, semantik va kommunikativ jihatlarini birlashtirib o'rganishga yordam beradi.

MUHOKAMA (ObCY)KAEH11E / DISCUSSION)

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda sintaktik analizning nazariy metodologik asoslarini chuqur yoritishda bir nechta asosiy yondashuvlar va metodlardan foydalaniladi. Jumladan, sintaktik tahlilga oid zamonaviy nazariyalar – formal-sintaktik, semantik-sintaktik, funksional-sintaktik hamda generativ grammatikaga asoslangan yondashuvlar o'zaro taqqoslanib har bir yondashuvning o'ziga xos afzalliklari va cheklovlari aniqlanib, ularning sintaktik analizdagi o'rni va samaradorligi baholab boriladi.

Sintaktik tahlilga oid nazariy yondashuvlar tilshunoslikda turli nuqtayi nazarlar asosida shakllangan bo'lib, ularning amaliy qo'llanilishi til birliklarini yanada chuqurroq tahlil qilishga xizmat qiladi. Har bir yondashuv o'ziga xos metodologik

asoslarga ega bo'lib, ularni real til materiallari asosida qo'llash orqali nazariyaning amaliy qiymati aniqlanadi. Sintaktik tahlilda gap qat'iy grammatik bo'laklarga ajratilib, har bir bo'lakning morfologik shakli va sintaktik vazifasi ko'rsatiladi. Ushbu tahlil tildagi an'anaviy grammatik tuzilishni aniq ko'rsatadi.

Biroq, formal tahlilda gapdagi semantik munosabatlar va kontekstual ma'no chetda qoladi, shuningdek, kommunikativ jihatlar inobatga olinmaydi. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, har bir sintaktik yondashuv til birliklarini o'ziga xos quyidagi metodologiya asosida izohlaydi:

v/ Formal-sintaktik tahlil grammatik strukturani aniqlaydi; v/ Semantik-sintaktik yondashuv gapning ichki ma'no qatlamini yoritadi; v/ Funksional-sintaktik yondashuv nutqdagi kommunikativ maqsad va ma'lumot taqsimotini ko'rsatadi; v/ Generativ yondashuv esa tilning yaratuvchan tabiati va transformatsion imkoniyatlarini ochib beradi.

Ushbu yondashuvlarning uyg'un holda qo'llanishi orqali sintaktik analizning kompleks modeli shakllanadi. Bu esa nafaqat nazariy tilshunoslik, balki tarjimashunoslik, matn lingvistikasi, kompyuter lingvistikasida ham amaliy natijalar beradi.

XULOSA (3AKMO⁴IEH11E / CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, sintaktik analiz zamonaviy tilshunoslikda nazariy va amaliy jihatlarini integratsiyalashga xizmat qiluvchi muhim tahliliy jarayondir. Uning nazariy asoslari gap va so'z birikmalari tuzilishini aniqlash, ularning grammatik, semantik va funksional bog'lanishlarini yoritishga yo'naltirilgan. Sintaktik tahlil amaliy jihatdan, ta'lim jarayonida grammatik kompetensiyani shakllantirish, matn lingvistikasi doirasida nutq strukturasi va mantiqiy izchillikni tahlil qilish, tarjima nazariyasida sintaktik moslikni aniqlash, shuningdek, kompyuter lingvistikasida

tabiiy tilni qayta ishlash algoritmlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, sintaktik analizning nazariy va metodologik asoslarini chuqur o'rganish zamonaviy tilshunoslikda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bu yo'nalishdagi izlanishlar til strukturasi va uning ishlash mexanizmlarini chuqurroq anglash, shuningdek, turli fanlararo sohalarda sintaksisga oid bilimlarni samarali qo'llash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Coccrop O)epAHHaHA ne. Kypc 06meii JIHHFBHCTHKH. Ilep. c (I)paHLIY3cKoro. M.: EAHTopvraJ1 YPCC, 2004. 256 c.
- Radford, Andrew (1990). Syntactic Theory and the Acquisition of English Syntax. Blackwell. ISBN 978-0-631-16358-9.
- A. Qodirov. O'zbek tilining sintaksisi. Toshkent: Fan, 1987.
- Sh.Yo'ldoshev Murakkab gaplarning sintaktik tahlili. Toshkent, 1992.
- BHHorpaA0B B.B. pyccKnx JIHHFBHCTnqeCKHX yqeHHM. 2-e IBA. , ncnp. H non. M.: Bblcmaq I-I-KOJ1a, 2005.
- M.X.Haydarov. Zamonaviy o'zbek tili sintaksisi. Toshkent, 2005.
- N.Tursunov. Sintaksis nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2010.